



AGRICULTURE AROUND TASHKENT CITY PROBLEMS OF DEVELOPMENT

Zulkhumar Abdalova

associate professor, Ph.D

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan

Imangali Islamov

associate professor, Ph.D

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: urban agglomeration, oscillating migration, reclamation, population employment, labor market, economically active population, production infrastructure.

Received: 26.11.23

Accepted: 28.11.23

Published: 30.11.23

Abstract: One of the distinctive features of the urbanization process in our republic is the high growth of the population of the capital city of Tashkent and the expansion of the city at the expense of the surrounding area. This article is dedicated to revealing the social, economic and ecological problems that have a negative impact on the development of agricultural sectors and the territorial structure of the city of Tashkent, which specializes in the supply of agricultural products to the residents of the "millionaire city".

TOSHKENT SHAHRI ATROFI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANISHI MUAMMOLARI

Zulxumar Abdalova

dotsent, PhD

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Imongali Islomov

dotsent, PhD

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: shahar aglomeratsiyasi, tebranma migratsiya, melioratsiya, aholi bandligi, mehnat bozori, iqtisodiy faol aholi, ishlab chiqarish infratuzilmasi.

Annotatsiya: Hozirgi davrda, respublikamizda urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, poytaxt Toshkent shahri aholisining yuqori darajada

o'sishi va shaharning atrofi hududi hisobiga kengayishiga bilan bog'liq. Mazkur maqola, "millioner shahar" aholisiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari etkazib berishga ixtisoslashgan Toshkent shahri atrofini qishloq xo'jaligining tarmoqlari va xududiy tarkibining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni ochib berishga qaratilgan bag'ishlangan.

СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО ВОКРУГ ТАШКЕНТА ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ

Зулхумар Абдалова

доцент, PhD

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Ташкент, Узбекистан

Имангали Исламов

доцент, PhD

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: городская агломерация, колебательная миграция, мелиорация, занятость населения, рынок труда, экономически активное население, производственная инфраструктура.

Аннотация: Одной из отличительных особенностей процесса урбанизации в нашей республике является высокий рост населения столицы Ташкента и расширение города за счет прилегающей территории. Данная статья посвящена раскрытию социальных, экономических и экологических проблем, оказывающих негативное влияние на развитие отраслей сельского хозяйства и территориальной структуры города Ташкента, который специализируется на поставках сельскохозяйственной продукции жителям «города-миллионника».

KIRISH

Toshkent shahri atrofi xo'jaligining hududiy-tarmoqlar tarkibini o'rganish jarayonida, o'zaro aloqador bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolar mazkur hududning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolar bevosita va bilvosita ichki va tashqi shart-sharoitlariga, hududning o'ziga xos tabiiy-ekologik xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida yuzaga kelgan.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida poytaxt Toshkent shahrining funksional tarkibining takomillashishi, "qishloq-shahar" yo'nalishida aholi mexanik harakatining kuchayishi, poytaxtning mintaqada yirik biznes, madaniy, sanoat, markazi sifatida shakllanishi, xorijiy sarmoyalarni jalb etilishi bilan yirik ijtimoiy, sanoat ob'ektlari va uy-joylarning qurilishi bilan

bog‘liq katta ishlar amalga oshmoqda va shahar hududining kengayishi atrof tumanlari hisobiga ro‘y bermoqda.

ASOSIY QISM

Poytaxt shahri maydonining davrlar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi turlicha bo‘lgan, 1990 yilda shahar maydoni 313,7 km², 1997 yilda - 334,2 km², 2000 yilda esa 348,0 km², 2022 yilda esa 360,0 km² ni tashkil etadi. (01.01. 2022 yil)[1]. O‘zbekiston Respublikasi hukumati doirasida poytaxt hududining kengaytirish masalalari bosqichma-bosqich amalga oshirilish nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublika Oliy Majlis Senati o‘n sakkizinchi yalpi majlisida Toshkent viloyatining Zangiota, Yuqorichirchiq, O‘rtachirchiq va Qibray tumanlari hamda Toshkent shahrining Sergeli, Bektemir, Mirzo Ulug‘bek va Yashnobod tumanlarini, shuningdek Toshkent viloyati va Toshkent shahri chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror loyihasi ko‘rib chiqildi. Toshkent viloyatining 7853,3 gektar yerlarining qo‘shilishi hisobiga Toshkent hududi kengaymoqda, bunda poytaxt viloyatini Toshkent shahridan 171,3 gektar yer olishi hisobiga viloyatning hududiy tarkibiga o‘zgartirish kiritilmoqda [2].

Yer qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi rolini bajaradi, yer fondi va uning tarkibi, sifati, meliorativ holati, unumdorligi katta ahamiyatga ega. Poytaxt atrofi yer maydoni tarkibining 2011-2021 yillar davridagi tahlili shuni ko‘rsatlik, qishloq xo‘jaligida foydalaniladiga yerlar 2011 yilda 124 ming ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilda esa bu ko‘rsatkich 88,1 minggacha pasaygan. Shahar atrofi yer resurslari uchun xos bo‘lgan eng dolzarb muammolardan sug‘oriladigan yerlar xajmining kamayishidir, agar 2011 yilda bu turdagi yerlar tarkibida sug‘oriladigan yerlarning maydoni 109,8 ming ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2021 yilda esa ko‘rsatkich 86,6 ga yergacha pasayishi qayd etilgan [4]. Tadqiq qilinayotgan barcha tumanlarda bunday holat kuzatilgan bo‘lib, ayniqsa, shaharga tutash bo‘lgan Zangiota, Qibray, Toshkent tumanlarida bu ko‘rsatkich ancha yuqoriligini ko‘rish mumkin. Bu muammoning sabablari bir tomondan, poytaxt hududining kengayishi bo‘lsa, ikkinchidan esa, shu tumanlarda sug‘oriladigan yerlarda uy-joy, sanoat, transport, maishiy va savdo-sotiq inshootlari va ob‘ektlarni qurilishi bilan izohlash mumkin. Respublikamiz sharoitida eng noyob sug‘oriladigan yerlarning qisqarishi, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, muammolar bilan bir qatorda, aholi joylashish tizimlariga, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir etadi.

Toshkent viloyati respublikaning boshqa minttaqalariga qaraganda suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligiga qaramasdan, so‘nggi yillarda ichida Toshkent shahri va viloyatida suvning ifloslanishi, suv tanqisligi va tejamsizlik bilan sarflanishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelgan. Shu bilan birga, Chirchiq va Ohangaron daryo vodiylarida hosil bo‘lgan suv qatlamlarida yer osti suvlarining ifloslanishi va sifatining pasayishi tendensiyasi davom etmoqda, “Toshkent viloyati suv xavzalaridagi suv sifati deyarli barcha kuzatuv punktlarida ifloslanish indeksi

bo'yicha II va III ballga to'g'ri keladi, toza va o'rtacha ifloslangan suvlar. Toshkentda yer osti suvlari tarkibida neft mahsulotlari, neftni tarkibiga kiruvchi yoqilg'i fraksiyalari aniqlandi" [3].

Mehnat resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishda aholi bandligini oshirish shahar atrofi tumanlari uchun eng dolzarb muammolaridan biridir. Mazkur hududda iqtisodiyotda faol aholini sonining pasayish tendensiyasini kuzatish mumkin, masalan, 2017 yilda 535,2 ming kishi iqtisodiy faol aholi kategoriyasini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda esa bu ko'rsatkich 464,9 ming kishiga teng bo'lgan. Bunday holatni, aholini iqtisodiyotda bandligida va ishsizlik darajasida ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiyotda bandlik eng past bo'lgan tumanlarga Yuqorichirchiq (57,8%) va O'rtachirchiq (51,6%) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa), ishsizlik yuqori bo'lgan tumanlarga esa Yangiyo'l (8,3%), Zangiota(8,2%) va Qibray(8,1%) tumanlarini kiritish mumkin (1- jadval).

Ustunligi yuqori, oxirgi yillarda chorvachilik tarmog'ining mazkur hududda yaratilgan yalpi mahsulotlar qiymatida bo'yicha pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Viloyatda sut-g'o'sht mahsulotlari yetishtirish bo'yicha Toshkent, Zangiota, va Qibray tumanlarida past ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bunga sabab avvalambor, chorva mollariga ozuqa yetkazadigan yem-xashak ekiladigan maydonlarning cheklanganligi bilan izohlansa, ikkinchidan tarmoqda naslchilik va sermahsul zotlarni yaratishga qaratilgan ilg'or texnologiyalarning sust ravishda

1-jadval

Toshkent shahri atrofi bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

№	Hududlar	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi					ulardan:									
							iqtisodiyotda bandlar					ishsizlar				
		2017	2018	2019	2020	2021	2017	2018	2019	2020	2021	2017	2018	2019	2020	2021
	Toshkent viloyati	1360,9	1349,8	1353,5	1336,5	1348,6	1289,6	1227,7	1232,9	1195,6	1222,1	71,3	122,1	120,6	140,9	126,5
	Tumanlar	535,2	484,2	468,3	465,2	464,9	511,7	441,3	427,7	416,6	422	23,5	42,9	40,7	48,5	43,1
1	Qibray	92,6	96,6	88,9	85,1	88,1	88,7	87,8	81,2	76,2	79,9	3,9	8,9	7,7	8,8	8,2
2	Zangiota	160,4	90,9	83,8	82,9	88,9	153,5	83,2	76,9	74,4	80,9	6,9	7,6	6,9	8,5	8,1
3	O'rtachirchiq	86,0	64,1	59,8	64,8	59,4	81,5	58,0	54,7	57,8	53,9	4,5	6,1	5,1	7,0	5,5
4	Yuqorichirchiq	67,9	59,8	56,9	57,8	59,3	64,9	54,2	51,4	51,6	53,7	3,0	5,6	5,5	6,3	5,6
5	Yangiyo'l	128,3	91,7	92,0	92,1	88,4	123,1	83,8	84,4	82,5	80,2	5,2	8,0	7,6	9,5	8,3
6	Toshkent	-	81,1	86,9	82,5	80,8	-	74,3	79,1	74,1	73,4	-	6,7	7,9	8,4	7,4

Izoh: Jadval Toshkent shahri statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

qo'llanilganligi, chorvachilik fermalarining zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnika bazasining rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, zamonovaiy texnika va texnologiyalar yaratish, serhosil, tezpishar navlarni va zotdor chorva hayvonlarni yaratishga sarflanadigan asosiy kapital sohadagi kamchiliklarning va muammolarni bartaraf etilishida muhim rol o'ynaydi.

Toshkent viloyatida 2010 yilda 1606,1 mlrd asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilgan bo'lsa, 2015 yilda- 4428,1 mlrd so'm, 2021 yilda esa 28113,6 mlrd so'm xajmida investitsiyalar yo'naltirilgan, 2010-2021 yillar moboynida investitsiyalarning hajmi 17,5 martaga o'sgan [4]. Binobarin, viloyati tumanlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 2010-2021 yillar mobaynidagi dinamikasida aksariyat tumanlarida sust rivojlanishi qayd etilgan, ayniqsa, eng past ko'rsatkichlar Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Yangiyo'l, Toshkent tumanlari bo'yicha kuzatish mumkin.

Agrosanoat ishlab chiqarish xajmi na faqat qishloq xo'jalikni rivojlanish darajasiga, balkim ishlab chiqarishi infratuzilmasi, transport, elektr ta'minoti, suv inshootlari kommunikatsiyalari, moddiy-texnika resurslari, muhandisslik, zoovetenariya, agrokimyo xizmatlari va boshqa xizmatlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Toshkent viloyatida umumiy avtomobil yo'llarining uzunligi 14326 km tashkil etib, mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar 10364 km va umumiy foydalanish avtoyo'llari 3965 kmni tashkil etadi [4].

Shuni aytish joizki, shahar atrofi xududlarida aholining yuqori zichligi, tuman maydonlarining shaharning o'sishi hisobiga qisqarishi, aholini muxandisslik -kommunikatsiyalar tizimi bilan ta'minlanishida muammolar keltirib chiqarmoqda.

Ayniqsa, shaharga tutash bo'lgan Zangiota, Toshkent va Qibray tumanlarida ichimlik suvi muammosi dolzarb hisoblanadi. Toshkent viloyatida tumanlarida aholini sifatli suv bilan ta'minlash maqsadida e'tibor berilmoqda, agar 2010 yilda shahar atrofi rayonlariga kiruvchi tumanlarga 64,6 km uzunlikda suv quvurlari tortilgan bo'lsa, 2021 yilda bo' ko'rsatkich 116,6 km tashkil etdi [4]. Biroq, oxirgi yil ma'lumotlariga qaraganda suv muxandisslik ta'minoti bo'yicha ishlar amalga oshirilmadi. Ayniqsa, Yangiyo'l, O'rtachirchiq tumanlarida viloyat bo'yicha bu ishlar ko'lami sust.

Shahar atrofi tumanlarida gaz quvurlarining ishga tushish holati bilan tanishadigan bo'lsak, 2010 yilda bu hududa 25,6 km gaz quvurlari o'tkazilgan bo'lsa, 2020 yilda atigi bu ko'rsatkich 1,7 km ni tashkil etgan [4].

Shahar atrofi qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligining pasayishi va sifatining buzilishi atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'liq. Atmosfera havosining turli sanoat, transport, maishiy chiqindilar ta'sirida ifloslanishi tadqiq qilinayotgan hududlarda qayd etilgan. Atmosfera

havosini ifloslantiruvchi moddalarning 2014-2021 yillar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatdiki, Zangiota tumanida (7500,8 t), O'rtachirchiq tumanida (18 768,4 t) va Yangiyo'l tumanida (767,6 t) miqdorida chiqindilar xavoga ifloslantirgan [4]. Bu ko'rsatkich, Toshkent viloyatini sanoat shaharlarida havoning ifloslanish ko'rsatkichini singari yuqoriligi bir xil bo'lgan. Eng yuqori xavoning ifloslanish ko'rsatkichi Yuqorichirchiq tumanida ko'zatilishiga sabab, viloyatning Angren-Ohangaron tog'-kon sanoatiga zonasidan chiqqan chiqindilarning shamol yo'nalishida bu hududlar ta'siri bo'lsa, Zangiota, Yangiyo'l tumanlariga ko'proq poytaxt shahrining yaqinligi bilan izohlash mumkin. O'rganilayotgan yillar davrida havo xolatining ko'rsatkichi bir oz kamaygan bo'lsada, bu vaziyat qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning sifatiga, tuproq unumdorligiga, yetishtiriladigan mahsulotning hosildorligiga, suvlarning ifloslanishida, aholi salomatligiga va boshqa salbiy xolatni yuzaga keltirmoqda.

XULOSA

1. Yirik megapolislarning shahar atrofi hududlari hisobiga kengayishi tabiiy holat bo'lib, poytaxt shahri atrofi tumanlari ma'muriy-hududiy tuzilishidagi o'zgarishlar muntazam jihatdan o'zgartirib turadi. Toshkent shahrining geosiyosiy o'rnini, qo'shni Qozog'iston Respublikasiga chegaradoshligi e'tiborga olgan holda, shaharning shimoli-sharq va g'arbiy qismlariga o'sishi ehtimoli katta. Binobarin, Toshkent shahri yer fondidan samarali va unumli foydalanish va ekologik havfsizlikni ta'minlash shahar atrofi agrar ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Tadqiq qilinayotgan xududda, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan, ishsizlik muammosi bo'lib, mehnat bozorida raqobatdoshlikni rivojlanishi, mehnat resurslarining malakasiga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi, kichik biznes va tadbirkorlikning keng yo'lga qo'yilmaganligi va boshqa sabablar бy муаммонининг негизини ташкил этади.

3. Qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, zamonovaiy texnika va texnologiyalar yaratish, serhosil, tezpishar navlarni va zotdor chorva hayvonlarni yaratishga sarflanadigan asosiy kapital sohadagi kamchiliklarning va muammolarni bartaraf etilishida muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.toshstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
2. <https://senat.uz/uz/lists/view/3360>
3. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/09/25/water/>
4. Toshkent viloyati kadastr agentligi boshqarmasi ma'lumotlari